



O‘ZBEK TILIDA HAYVON RAMZLARI VA ULARNING LINGVOKULTUROLOGIK XUSUSIYATI

Ziyatova Latofat

Qarshi xalqaro universiteti o‘qituvchisi

Annotatsiya: Ushbu maqolada o‘zbek tilida hayvon ramzlari va ularning o‘ziga xos lingvokulturologik xususiyatlari badiiy asarlardan olingan parchalar misolida tahlil qilingan. Shuningdek, hayvon ramzlari turli lingvomadaniyatda turlicha ma’nolarga egaligi, o‘zbek tilida hayvon ramzlari turlicha talqin qilinganligi ko‘rsatib berilgan.

Kalit so‘zlar: ramz, lingvomadaniyat, totem hayvon, konnotatsiya, turkiy xalqlar, ot, qoramol, buqa, it, tulki, ilon, mushuk, tuya.

Hayvon ramzlari turli lingvomadaniyatda turlicha ma’nolarga ega. Xususan, o‘zbek tilida hayvon ramzlari quyidagicha talqin qilinadi: Ot turkiy qabilalarda totem jonivorlardan biri hisoblanib, ezgulik ruhi sifatida shomonga yovuz ruh ustidan g‘alaba qozonishga yordam beradi. [2]. Uy hayvoni bo‘lgan ot o‘zbek millati uchun salomatlik ramzi bo‘lib ham xizmat qiladi. Bemor odamdan ahvolini so‘rashganda agar u sog‘lig‘i yaxshilanayotgan bo‘lsa, u ko‘pincha holatini “otdayman” so‘zi orqali ifodalaydi. Buni quyidagi misollar orqali ko‘rishimiz ham mumkin. Hali otdaysiz, rais bova, otday (T.Murod. Bu dunyoda o‘lib bo‘lmaydi)! Ko‘rib turibsan-ku, otdayman! – Sherzod qo‘llarini yozdi (O‘.Hoshimov. Nur borki, soya bor). Menga nima qilardi, qizim. Otdekman. Faqat har doimgidek yolg‘izman (O‘.Umarbekov. Odam bo‘lish qiyin). Tariximizda oq otga mindirish – shaxsga nisbatan chuqur ehtiromni anglatgan:

OQ OT

Navoiy “Xamsa”ni tugatdi yozib,

Qutlashga yig‘ildi arkoni davlat.



Bayqaro ayricha hurmat ko'rgazib,
Oq otin minishga ayladi da'vat.
Lekin uzr dedi shoiri davron,
Balki bu holni u kibr deb bildi.
Shunda sekingina lutf etdi Sulton:
– Buni otning o'zi iltimos qildi. (A.Oripov)

Qoramol (buqa, sigir, mol) ramzlarining turli ma'nolari mavjud. Buqa ko'pincha to'kinlik, farovonlik kabi mifologik ramzni ifodalaydi: [1]. Emishki, bir Buqa bo'lar emish. Buqa podada yurajak buqalardan emas emish. Buqa... Muqaddas Buqa emish! Muqaddas Buqa samo nur-ziyolardan yaratilgan emish. Muqaddas Buqa shoxlari-da shunchaki suyak emas emish. Muqaddas Buqa shoxlari.. oltindan emish! Muqaddas Buqa tuyoqlari-da shunchaki tuyoqlar emas emish. Muqaddas Buqa tuyoqlari... kumushdan emish! Muqaddas Buqa bir o'zi yurmas emish. Muqaddas Buqa bir aravani tortib yurar emish. Muqaddas Buqa aravasida... oy ortib yurar emish! Muqaddas Buqa odamzotga ko'rinmas emish! Hamisha ko'zdan pana bo'lib yurar emish. Shu boisdan Muqaddas Buqani ko'rish g'oyatda mushkul emish (Tog'ay Murod. Oydinda yurgan odamlar).

Sigir ham to'kinlik, beg'amlik ma'nolariga ega. Mol esa ramz sifatida o'zbek tilida qo'lidan ish kelmaydigan, befarosat, ko'p narsaga aqli yetmaydigan insonni bildirib keladi. "Sen mol emassan. U yoqdan burningni oqizib kelmagansan. Tishingni qayrab yuribsan" (Tohir Malik.Shaytanat 1-kitob) yoki "U olmaydigan eshshak bo'lsa, sen pul berishni eplolmaydigan molsan! Pul olmaydigan odam yo'q bu dunyoda, pul berolmaydigan lapashanglar bor" (Tohir Malik.Shaytanat 1-kitob).

Tuya ko'pincha beg'amlik ramzi sifatida qaraladi. Irimlarga ko'ra, homilador ayol tuya go'shti yesa, 12 oyda tug'ar emish. Xuddi shu holat o'zbek tilida uzoq kutilgan, anchadan beri amalga oshmaydigan holatlar sifatida ham ramziy ma'noga ega. Direktor shart qo'yibdi: shunga mualliflik qilsam, ikki yildan buyon tuya go'shti yeb yotgan ssenariyim ishga tusharmish (Erkin A'zam. Shovqin).



It o‘zbeklar uchun uy hayvoni. U ijobiy va bir vaqtning o‘zida salbiy konnotatsiyalarga ega hisoblanadi. [3]. Ijobiy ramz sifatida u insonga butun umr vafo hamda sadoqat bilan xizmat qiladigan, har qanday vaziyatda ham uni tashlab ketmaydigan hayvon hisoblanadi. Said Ahmadning “Qorako‘z majnun” hikoyasida aynan shu haqida yozilgan. Ushbu hikoyaga epigraflardan biri sifatida quyidagi gaplar olingan. Hadisi sharifdan : “Jannatga kiradigan o‘n nafar hayvondan biri bu Ashobi kahfning vafodor itidir”. (Al-jome al kabir) Qorako‘zni Saodat aya shunchalik yaxshi ko‘radiki, qizi Qumri uni urishganda: “Agar Qorako‘zni yana supurgi bilan ursang, unga kosov otsang, bilib qo‘y, ukalaringnikiga ketib qolaman” , - deb aytadi. U kasal bo‘lib qolganda bir oy deraza tagida “ko‘kragini qorga berib” yotgan. *Qorako‘z Saodat aya vafot etgach har kuni uni qidirib, bolalarinikiga borib keladi. Umrining oxirigacha kampirni qidiradi.* (Said Ahmad. Qorako‘z majnun) Salbiy ramz sifatida esa pastkashlik, ablahlik, urushqoqlik, xor-zorlikni bildirib keladi. *Qani u itdan tarqagan?.. — Yusuf ovozi boricha baqirdi va shu zahoti ko‘zlaridan potrab yosh chiqdi, — aldashni nima ekanligini ko‘rsataman xaromxo‘rga!..*(U.Hamdam. Muvozanat). *T-fu! Itdan bo‘lgan qurbonlikka yaramaslar! — dedi.* (T.Murod. Bu dunyoda o‘lib bo‘lmaydi). *Mana, idealsizlik oqibati — sovet xalqi bir-birini itday talab boshladi* (T.Murod. Bu dunyoda o‘lib bo‘lmaydi). *Bilardim itday o‘lib ketishingni, itdan farqing yo‘q edi! O‘ldir, meni ham o‘ldir, qotil! — parrixta, sho‘rida Ko‘k Tursun o‘zini Bo‘stonga otdi.* (T.Murod. Bu dunyoda o‘lib bo‘lmaydi). “Yulduzli tunlar” romanida Shayboniyxon Amudaryodan narida imillab yurgan, qiyin vaziyatda yordamga kelmayotgan o‘ttiz ming lashkarni it deya ataydi: *“Hozir butun davlatimiz, butun sulolamiz xavf ostida-ya, nahotki shuni fahmlamasanglar? Hayot-mamoting hal bo‘ladigan paytda, yo shoh meni yo‘q qiladigan, yoki men shohni nest-nobud qiladigan asnoda shunday arazlab yurishlaring itlik emasmi? Sen itlar hali ko‘rasenlar, shu qamaldan eson-omon qutulsak, hammangni tavbangga tayantirgaymen!”* (Qodirov P. Yulduzli tunlar). *Raqibni bu qadar jasoratda ko‘rgan Xudoyorning kiprak ostlari uchib, soqol tuklari siyakindi va bir oz so‘z topolmag‘andek tamshanib turdi.*



— *Sen bizga xiyanat qilding', it uvli!*

Anvar bosh irg'atdi.

— *Iqrorman.*

— *Tuzimni unutding'!*

— *Tonmayman! (Abdulla Qodiriy. Mehrobdan chayon).*

Eshak o'zbek lingvomadaniyatida befarosatlik, oqibatsizlik, johillik ramzidir. — Sallalik eshaklarning diringlashi og'ilxonag'acha... Ular mirzo Anvar uylanmakchi bo'lg'an qizni xong'a to'g'rilab, shuning bilan go'yo o'ch olmoqchilar. Mirzo Anvar xotinsiz qolsin, demakchi-da, bu ahmoqlar. Holbuki, butun mamlakat qizlari mirzo Anvar uchun soch taraydi. Agar siz xohlasangiz qozikalon yoki domla shog'ovul va shular singari kalonpolarga kuyav bo'lolmaysizmi? Kesak otib arslonni yengmakchi bo'lg'an galvarslarning ishiga kulgim qistaydir... (Abdulla Qodiriy. Mehrobdan chayon).

Tulki o'zbek xalqi uchun ayyorlik, yolg'onchilik, ustomonlik, ikkiyuzlamachilik ramzi bo'lib keladi. Agar bo'lsami, o'tirganlar Muhammadjon akaning ustamonligiga, pixini yorgan, mug'ombirligiga, qari tulkiligiga hamma tan bergan, so'ngra bu voqeani uzoq yillar davomida Yaponiyaning saqichidek hech kimga bermay chaynab lazzatlangan bo'lardilar (U.Hamdam. Muvozanat).

Ilon zaharli bo'lgani uchun o'zbek xalqi o'rtasida yomon gapiradigan, bema'ni so'zlarni ko'p ishlatadigan, insonga yordam bermaydigan yomon odamlarni umumiy ma'noda anglatib keladi [4]. Buni Pirimqul Qodirovning "Yulduzli tunlar" romanidagi quyidagi misol orqali ham ko'rishimiz mumkin: "Begim, siz Tanbalning yog'iyligi uchun xijolat chekmang. "Ilon baribir ilonligini qilur edi" (Qodirov P. Yulduzli tunlar).

Quyon o'zbeklarda qo'rqqoqlik, ko'zdan yo'qolish, aldoqchilik ramzi sifatida ishlariladi. Tushunsang-chi, qahramonlikning vaqtimas. Quyon bo'lish kerak! — deb bo'g'ildi Mirazim (U.Hamdam. Muvozanat).

Mushuk ramz sifatida ko'pincha muloyimlik, tekinxo'rlik, ba'zan ayyorlik ma'nolarini anglatadi. Irimlarga ko'ra, yo'ldan qora mushuk kesib o'tsa, kishining ishi



yurishmaydi yoki biror falokat ro‘y beradi. *Maryamxon dastlab o‘z kundoshi bilan chiqisha olgan emas. Hatto musulmonlarning bunday “ahmoqona zakunini” fikr-xayoliga aslo sig‘dira olmagan.*

U ochiqcha shovqin-suron ko‘tarmasdan, eriga yalingan, bu odatning yomonligini, urning ko‘ngli ikkiga bo‘linsa, turmush yomonlashajagini tushuntirishga tirishgan. Keyin arazlagan, yig‘lagan. Ammo kundoshini qo‘ydirib yuborishga muvaffaq bo‘lgan emas. Bir-ikki bola tug‘ib, ichkarining urf-odatiga, musulmonchilikning ruhiga chuqurroq kira boshlagach, kundoshga bo‘lgan rashki ba‘zan olovlanib qo‘ysa-da, asta-asta taqdirga ko‘nikkan. Endi kundoshi bilan uch-to‘rt kun apoq-chapoq bo‘lib, og‘iz-burun o‘pishganday bo‘lar, lekin yana uch-to‘rt kun, sababli-sababsiz, sira gaplashmay, teskari burilar edi. Shunday vaqtlarda Nuri:

— Oralaringizdan qora mushuk o‘tdimi?— derdi kulib. Maryamxon o‘zi to‘qiganmi, yo atrofdan eshitganmi, har vaqt shunday javob berar edi:

— Kundosh — boshingda tosh, ko‘zingda yosh... (Oybek “Qutlug‘ qon”)

Xullas, hayvonlar bilan bog‘liq ramzlardan hayvonlar turli xalqlarda turli ramziy ma’nolarni anglatishi, ot hamda bo‘ri turkiylar uchun totem hayvonlardan biri hisoblanishi kabi umumiy xulosalarga kelish mumkin. Shuningdek, sigir (mol) va it o‘zbeklar uchun salbiy konnotatsiyaga ega, shuning uchun ko‘pincha ijobiy ma’noda kelmaydi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati:

1. Maxmaraimova Sh. Lingvokulturologiya: O‘quv qo‘llanma. –T.:Cho‘lpon nomidagi NMIU, 2017
2. Usmanova Sh. Lingvokulturologiya. – Toshkent, 2019
3. Usmanova Sh. Tarjimaning lingvomadaniy aspektlari. – Toshkent: TDSHI, 2015
4. Yo‘ldoshev M. Badiiy matnning lisoniy tahlili: Metodik qo‘llanma. – T. Alisher Navoiy nomidagi O‘zbekiston Milliy Kutubxonasi nashriyoti, 2010
5. Shomaqsudov Sh., Shorahmedov Sh. Nega shunday deymiz. – Toshkent: G‘afur G‘ulom nomidagi Adabiyot va san’at nashriyoti, 1987